



QASHQADARYO VILOYATI CHIROQCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 31-yanvar

32-4-66-Q/25

Chiroqchi tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda “2025-2027yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-454-son xamda viloyat hokimining 2024-yil 27-dekabrda 07-4-0-Q/24-son qarorlari haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda “2025 - 2027yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-454-son xamda viloyat hokimining 2024-yil 27-dekabrda 07-4-0-Q/24-son qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan.

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda 2025-2027yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-454-son xamda viloyat hokimining 2024-yil 27-dekabrda 07-4-0-Q/24-son qarorlari qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorining:

1-bandiga ko‘ra hokimliklar, vazirlik va idoralar takliflari asosida ishlab chiqilib, xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan ma’qullangan 2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi;

2-bandiga ko‘ra quyidagilar:

2025-2027-yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy parametrlari hamda maqsadli mo‘ljallar 1-ilovaga;

2025-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish doirasida moliyalashtiriladigan yo‘nalishlarning asosiy parametrlari 1a-ilovaga; 2025-2027-

yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini ishga tushirish va yangi quvvatlar tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga;

2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli ro'yxatlar 3-16-ilovalarga;

2025-yilda maxsus iqtisodiy zonalar hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash bo'yicha obyektlarning manzilli ro'yxati 17-ilovaga;

Kelgusi yillarda loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan istiqbolli obyektlarning manzilli ro'yxati 18-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishini samarali tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi" 19-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'I Z.Ergashev, tuman hokimining o'rinbosari B.Norqobilov, tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Abduraxmonov) hamda buyurtmachilar tashkilotlar:

a) bir hafta muddatda moliyalashtirish hajmlarini qurilish - montaj ishlariningkalendar jadvallari bilan uzviy bog'liq holda 2025-yil uchun yildan-yilga o'tuvchi qurilish obyektlarining manzilli ro'yxatini belgilangan tartibda tasdiqlasin;

b) ikki oy muddatda 2025-yilda yangidan boshlanadigan loyihalar (obyektlar)bo'yicha tasdiqlangan loyiha oldi va yoki loyiha hujjatlari asosida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) g'oliblari bilan pudrat shartnomalarini tuzish choralarini ko'rsin;

v) xarid qilish tartib-taomillari yakunlanganidan so'ng bir hafta muddatda

2025-yilda yangidan boshlanadigan loyihalarning (obyektlarning) manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda tasdiqlasin;

g) 2025-yil 15-fevralga qadar Dasturning asosiy parametrlarini bajarish, shu jumladan, loyihalar (obyektlar) bo'yicha kapital qo'yilmalarni o'zlashtirishning prognozko'rsatkichlarini choraklar kesimida tasdiqlab, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etsin.

5. Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha tuman shtabiga:

mahallalarda Dasturning o'z vaqtida, to'liq va sifatli ijro etilishi, shu jumladan, har-bir loyiha (obyekt) bo'yicha mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi,

qurilish-pudrat ishlari sifatli bajarilishi, xarid qilish tartib-taomillari qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilish;

tanlov (tender) savdolari o'tkazilgandan so'ng tasdiqlangan loyiha – smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritishni cheklash;

Dastur doirasida 2025-yilda yakunlanadigan obyektlarni belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishi ustidan tizimli nazoratni o'rnatsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i Z.Ergashev, tuman hokimining o'rinbosari B.Norqobilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



**YUSUPOV
FAYZULLA.YAKUBOVICH**